



Deconstructive approach and its significance in the novel “England, England” by Julian Barnes

Mukhlisa TURSUNOVA¹, Nargiza MAKHMUDOVA²

Uzbekistan State University of World Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received March 2024

Received in revised form

10 April 2024

Accepted 25 April 2024

Available online

25 July 2024

Keywords:

postmodern literature,
postmodernism,
modern literary device,
jigsaw-puzzle of “Britain”.

ABSTRACT

The research paper discusses the main principles of deconstruction, recognized as a unique literary style of postmodernism through the literary-aesthetic analysis of the work “England, England” by a major representative of contemporary British postmodern literature – Julian Barnes. In contrast to hierarchical approaches, deconstruction as a modern literary device rejects the presentation of various issues in a literary work through the main philosophical, cultural, and socio-political concepts. Julian Barnes exposes the follies of the present-day political and social situation in England by the literary technique of deconstruction masked as the jigsaw puzzle of “Britain” belonging to the main character, Martha Cochrane.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss3-pp68-75>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Julian Barnsning “Angliya, Angliya” romanida dekonstruktiv yondashuv va uning badiiy ahamiyati

ANNOTATSIYA

Kalit soʻzlar:

postmodern adabiyoti,
postmodernizm,
zamonaviy adabiy vosita,
“Britaniya” rasm-
boshqotirmali xaritasi.

Ushbu ilmiy ishda Britaniya zamonaviy postmodern adabiyotining yirik namoyandasi Julian Barnsning “Angliya, Angliya” asarining badiiy-estetik tahlili orqali postmodernizm oqimining oʻziga xos badiiy uslubi sifatida eʼtirof etilgan dekonstruksiyaning asosiy tamoyillari tadqiq qilingan. Dekonstruksiya iyerarxik yondashuvlardan farqli ravishda badiiy asar yaratish jarayonida turli masalalarni ustuvor falsafiy, madaniy va ijtimoiy-siyosiy qarash yoinki konsepsiyalar orqali bayon qilishni rad etuvchi zamonaviy

¹ Independent researcher, Uzbekistan State University of World Languages. E-mail: mukhlisa_vakhobovna@mail.ru

² PhD, Associate Professor, Uzbekistan State University of World Languages.

adabiy vosita hisoblanadi. Julian Barns bugungi Angliyaning siyosiy-ijtimoiy holatidagi illatlarni o'zining "Angliya, Angliya" asari bosh qahramoni Marta Kokreynning "Britaniya" rasm-boshqotirmali xaritasidagi kabi "buzib yig'ish" (dekonstruksiya) orqali fosh etadi.

Деконструктивный подход и его роль в романе Джулиана Барнса «Англия, Англия».

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:
постмодернистская литература,
постмодернизм,
современный литературный прием,
пазл «Британия».

В статье рассматриваются основные принципы деконструкции, признанной уникальным литературным стилем постмодернизма, посредством литературно-эстетического анализа произведения «Англия, Англия» крупного представителя современной британской постмодернистской литературы – Джулиана Барнса. В отличие от иерархических подходов, деконструкция как современный литературный прием отвергает подачу различных проблем литературного произведения через основные философские, культурные и общественно-политические концепции. Джулиан Барнс раскрывает пороки политической и социальной ситуации в современной Англии с помощью литературного приема – деконструкции, замаскированной под пазл «Британии», принадлежащей главной героине Марте Кокрейн.

KIRISH

1960–70-yillar postmodernizmning taraqqiy etishida muhim davr sifatida qaralishiga sabab 1967-yilda fransuz faylasufi Jak Derridaning "dekonstruksiya" (deconstruction) strategiyasini ilm ahliga tanishtirganligi bo'ldi. Dekonstruksiya – hukmron har qanday tushuncha va konsepsiyalarning asl repressiv xususiyatlarini ochild berish maqsadida ularni markazdagi asosiy roldan mahrum qilib, tanqidiy o'qishni targ'ib etadigan uslubdir. Bunday mantiqiy, estetik va siyosiy qarashlarga bo'lgan ishonchni zaiflashtirishni nazarda tutuvchi yondashuv inqilob darajasidagi yangilik va postmodernizmga xos xususiyat [5] edi. O'z o'rnida dekonstruksiya matnni har qanday iyerarxik konsepsiyalar orqali talqin qilishdan voz kechishga undadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Julian Barnsning "Angliya, Angliya" romani bir qator adabiyotshunoslar tomonidan postmodern satirik roman [1, 2, 6.] deya ta'riflangan. Ushbu asar Angliya postmodern jamiyatining o'ziga xos bir necha tomonlarini ularga dekonstruktiv yondashgan holda satiralashtiradi. Jumladan, ingliz jamiyatining o'ziga xos ramziga aylangan xotiralar asnosiga qurilgan shaxsiy o'ziga xoslik g'oyalarining ma'nosizligini; yagona va betakror ingliz millati deya madh etilgan qarashlarning asossizligini; ma'lum bir ijtimoiy toifalar tomonidan butun mamlakatning "istirohat bog'iga" aylantirilgani holda ularning asllikka da'vo qilishlarining o'rinsizligini; tarixiy haqiqat tushunchasining nisbiyligini hajviy bo'yoqlarda ifodalaydi. Bu kabi masalalar asarning bosh qahramoni Marta Kokreynning

hech qachon yig'ishga muvaffaq bo'lmagan rasm-boshqotirmali Britaniya xaritasi misolida bayon qilinadi (qarang 1-jadval).

(1-jadval)



TAHLIL VA NATIJALAR

Romanning birinchi qismida Marta bolaligida sodir bo'lgan voqealardan qay biri eng birinchisi va esda qolarli ekanligi haqida xayol suradi. Ilk esda qolarli xotirasi bu Angliyaning topishmoq-boshqotirmali xaritasini yig'ganligi bo'lishi mumkinligi haqida o'ylaydi. Har gal otasining boshqotirma xaritaning aynan yetishmayotgan bo'lagini topib berishi bilan nafaqat "Angliyasi"ning, balki yuragining ham tiklanganini his qiladi. Ammo bu haqiqiy xotira bo'la olmasligini ich-ichidan his qiladi, chunki bu xotiralar otasi uni tashlab ketgandan keyingi – aldanganligini tushunib yetganidagi haqiqati edi. Otasi boshqa ayol bilan munosabatlari sabab oilasini tark etadi va Martani o'z mehridan mosuvo bo'lib o'sishiga sababchi bo'ladi. Xuddi shu narsa Martaning bolalikdagi yagona haqiqiy xotirasi bo'lib qoladi. Shu sabab u xotiralar bu *"balki beg'uborlik sabab san'at darajasida to'qib chiqarilgan yolg'on"*dir [4] degan xulosaga keladi. Xotiralarni sun'iy tarzda bo'yoqdor qilib tasvirlash haqiqatning yuzaga chiqishiga to'sqinlik qiladi. Dekonstruksiya esa sun'iylikdan chekinib, asl haqiqat sari intilishga bo'lgan kurash jarayonini o'zida ifoda etadi. Qahramonimiz Marta Kokreyn bolalik xotiralariga boqib – otasi tomonidan unga nisbatan qilingan xiyonatdan o'zga narsani ko'rmaydi.

Asarning ikkinchi qismida Marta Kokreyn qirq yoshlardagi, turmushidan ajrashgan va yangi ish izlab yurgan ayol sifatida tasvirlanadi. Marta Kokreynning murakkab va o'ta kuchli shaxsiyati hamda chuqur bilimga ega qahramon va tarix fani mutaxassisi sifatida tasvirlanishi asarning umumiy satirik muhitini ta'minlab beradi. U Ser Jek Pitman tomonidan uning "Angliya, Angliya" deb nomlangan juda yirik turistik loyihasini amalga tatbiq etish uchun ishga yollanadi. Ser Jek Pitmen asarda asosiy xarakterlardan biri bo'lib istehzoli tarzda "katta odam" sifatida ta'riflanadi va uning "kattaligi"ni quyidagi jabhalarda ko'rish mumkin. *Ser Jek orzulari "katta", ishtahasi "katta" va "katta" olijanob*

odam. Faoliyatini mayda-chuydalardan boshlashiga qaramasdan, juda “katta” ishlarda meteor singari ko’tarilgan. U – juda “katta” tadbirkor, innovator, ilg’or g’oyalar ustasi, chinakam san’at homiysi va shahar hayotini jonlantirib turuvchi shaxs. U davlat rahbarlari bilan bir safda yurishi mumkin, ammo yeng shimarib, qo’llarini kir qilishdan also qo’rqmaydi. Shuncha boylik va shon-shuhratga qaramasdan, u qalban oila odami [4]. (asar tarjimasi mualliflarniki., M. Tursunova., N. Maxmudova). Odamlar uni bir odam hayoti davomida qilishi mumkin bo’lgan deyarli hamma ishni qilishga muvaffaq bo’lgan erkak deya ta’riflashadi. U o’zi haqida gapirganida o’zidan g’ururlanib so’zlaydi: *“Men noldan haqiqiy biznes qurdim. Men juda ko’p boylik orttirdim. Olqishlar men uchun tabiiy holga aylandi. Men davlat rahbarlarining ishonchli vakiliman, go’zal ayollar menga oshiq bo’ldilar. Jamiyatda meni o’ta qattiq hurmat qilishmasa-da, hurmatga sazovor shaxs sifatida e’tirof etildim. Men yaxshigina mavqega egaman. Mening xotinim esa prezidentning o’ng tomonida o’tiradi”*. [4] Uning shaxsiyatidagi markazlashgan “men” muallif dekonstruksiya-sining nishoniga aylanadi. Chunki dekonstruksiya-viy yondashuv ayni bir g’oyalar tizimini kinoyaviy tarzda markaziy ahamiyatidan mahrum qilishni nazarda tutadi. Asl holatida olib qaralsa, Ser Jek Pitmen qaroqchi Ser Frensis Dreikning postmodern jamiyatlardagi parodiyaviy ko’rinishi xolos. Hatto uning familiyasi ham ramziy ravishda “pit” kovak ma’nosini anglatib, uning faqat kovakda yashashiga ishora qiladi. U Vayt orolida turistik-tijorat maqsadlarida “Angliya, Angliya” deb nomlangan mavzuviy parkni qurish jarayonida tiribdi. Muallif shu tariqa Angliyaning Disneylendga aylanib ketayotganligiga ishora qiladi. Asllik me’yorlari ostida shakllangan deya ta’riflangan Angliya va ingliz millatining o’zigagina xos milliy shaxsiyati – dekonstruktiv yondashuvlar asnosida postmodern jamiyatlarning replikasi sifatida namoyon bo’ldi. Fransuz faylasufi – Jan Bodrillardning nazdida bu simulakra davrining ko’rinishi bo’lib, holatni haqiqatni yolg’ondan hamda reallikni sun’iylikdan farqlaydigan chin hayotiy mexanizmlarning o’limi [3] deya baholash mumkin. Asarda Marta bilan ishqiy munosabatlarda bo’lgan fransuz bilimdoni ta’kidlaganidek: *“Biz albatta o’ta zamonaviy masala haqida gaplashyapmiz. Men iqtibos keltirganlarning ko’pchiligi tomonidan isbotlangan haqiqat shuku – biz asl narsalardan ko’ra ularning nusxasini afzalroq deb bilamiz. Biz asl san’at asaridan ko’ra uning qayta ishlangan shakllarini ko’proq xush ko’ramiz”* [4]. Shu o’rinda Ser Jek Pitmenning borliq haqiqatlari haqidagi qarashlarini tahlil qilib, buning postmodern jamiyatlarda qay darajada ahamiyatli ekanligi haqida bir xulosaga kelishimiz mumkin. Uning bir jarayonda xonada o’tirganlarga qarab, *“Haqiqat o’zi nima”* deya qilgan murojaatidan va borliq haqiqatlarining uning o’zi uchun ahamiyatini ma’lum qilgach, biz uning uchun tom ma’nodagi reallikning mavjud emasligini ko’rishimiz mumkin. *“Haqiqat nima? Ba’zan o’zimga shunday savol beraman. Masalan, siz haqiqatdan ham, sizmisiz? Haqiqiyimisiz? ... Albatta, siz o’zingiz uchun haqiqiysiz, ammo oliy darajadagi masalalarga bunday yondashish to’g’ri bo’lmaydi. Mening javobim shuki: Yo’q. Ming afsus. Va siz meni samimiyligim uchun kechirishingiz mumkin, lekin men uchun sizning o’rningizga boshqa odamni yollash hech bir muammo tug’dirmaydi – bu bir oddiy simulakra va men bu ishni sevimli Brankuzi haykalchamni sotishdan ham tezroq bajarishim mumkin. Pul haqiqiymi? Qaysidir ma’noda pul sizdan haqiqiyoq. Yaratgan Zot haqiqiymi? Bu masalaga meni yaratgan Zotni uchratgunimcha teginmay turganimiz ma’qul. ... Mening ismim haqiqiymi?... Bordiyu faqat qizlarim bo’lsachi? Unda bu abadiyatdan qarzga olingan arzimasingina bir matoga teng. ... Ulkan g’oyalar haqiqiymi? Faylasuflar bizni shunga ishonishimizni istashadi. Albatta, menda ham o’z vaqtida shunday*

katta g'oyalar bo'lgan, ammo ularni yozib yurmamiz-da. Ehtimol menga ayni damda yagona kerakli narsa bu so'nggi ulkan g'oyadir [4]. Uning bu kabi g'oyalari haqiqiy Angliyani distopiyaga aylantirish uchun o'ylab topilgan balandparvoz gaplar xolos.

Ser Jek Pitmenning bu kabi qarashlaridan shuni tushunishimiz mumkinki, uning uchun haqiqatlar mavjud emas, faqat pulgina haqiqiy va faqat u insonlarni qandaydir haqiqatlarni amalga oshirishlariga imkon bera oladigan chin haqiqat. Garchi uning uchun "katta" haqiqatlar hech qanday ramziy ma'noga ega bo'lmasada, o'zi asos solgan haqiqatlarning Marta Kokreynning cho'rtkesarligi va zukkoligi sabab yo'qqa chiqarilganligini ko'rishimiz mumkin. Ser Jek Pitmen Marta Kokreyn bilan bo'lgan ishga joylashish uchun uyushtirilgan suhbatdayoq buni tan olishga majbur bo'ladi. Pitmenning *"Bugungi avlod Qirollik oilasini nega bunchalar yaxshi ko'radi deb o'ylaysiz?"* degan kinoyali savoliga Marta *"Bordiyu aksi bo'lganda ham nega buning aksi bo'lyapti deb so'ragan bo'lar edingiz"* deya masalani shu joyning o'zidayoq yechimga yuzlashtirib qo'yadi. – *"Biz juda mag'rur xalqmiz, 1066-yildan beri biror urishda mag'lub etilmadik"* deya g'ururlanib gapirganida ham Marta *"Amerika inqilobiy urushlari va Afg'on urishlarini hisobga olmaganda"*, deb haqiqatning boshqa tomonlarini ham oshkor qiladi. Suhbatning bunday tus olishini kutmagan Ser Jek Pitmen *"baribir, biz Napoleonni, Kayzerni va Gitlerni mag'lub qilganmiz"*, deb maqtanganida Marta *"Do'stlarimizning arzimagan yordami bilan albatta"* deya suhbatga yakun yasaydi. Shubhasiz, ingliz millatining o'zligini va qudratini namoyon etuvchi bu kabi tarixiy voqealar aslida umuman boshqacha shaklda sodir bo'lganligini asar davomida Marta Kokreynning dekonstruktiv salohiyati sabab tushunib yetamiz. Ser Jek Pitmen haqiqatning bunday qiyofasini ko'rishga tayyor emas edi, ammo ich-ichidan buni tan oldi va Marta suhbat zalini tark etgach, yonidagi hamkasblariga qarab: *"Bir hovuch qum va haqiqiy marvarid. Albatta men o'xshatmasdan gapira olmayman, lekin mening lug'atimdagi erkaklar ayollikni xush ko'radilar. Janoblar, menimcha men sevib qoldim"*, deya suhbatga yakun yasaydi.

Uchinchi bo'limda "Angliya, Angliya" deb nomlangan Angliyaning replikasini yaratish jarayoni boshlanib ketadi. Tematik parking haqiqiy qiymatini Ser Jek Pitmenning uning ko'lam haqidagi nutqidan bilib olishimiz mumkin. *"Biz tematik park haqida gaplashayotganimiz yo'q"* deya gap boshladi u. *"Biz xalq madaniy merosining markazi haqida ham gaplashmayapmiz. Biz Disneylendni, butun jahon ko'rgazmasini, Britaniya festivalini, Legolend yoki Peye Esteriksni ham muhokama qilayotganimiz yo'q. Bordiyu ikki xil uslubda va antiqa tarzda tayyorlanadigan kurka go'shti tayyor bo'lguncha aktyorlar tomoshabinlarga qayla ulashib turadilar va bunday xizmatlar uchun kredit kartochkasi orqali to'lovni amalga oshiradilar, deb o'ylagan bo'lsangiz kechirib qo'yasiz. Bilasiz, men majoziy ma'noda gapiraman. Biz kvant uslubida sakrashni amalga oshiryapmiz. Bizga ikki tiyini bor yoki yo'q turistlar kerak emas. Biz dunyoni lol qoldiramiz. Biz oddiy ko'ngilochar o'yin-kulgu vositalari umuman taklif qila olmaydigan hattoki yuqori sifatli dam olish maskanlari taklif qila olmaydigan xizmatlarni taklif qilamiz"* [4]. Garchi uning atrofida bir necha hamkorlari bunday replika g'oyasiga katta shubha bilan qarashgan bo'lishsada, Ser Jek Pitmen ularni o'z g'oyasining asosililigiga kutilganidan a'lo tarzda ko'ndirishga muvaffaq bo'ladi. *"Bordiyu funt haqiqiy bo'lsa, dollar replikaga aylanadi va biroz muddat o'tgach haqiqiy narsa replikaga aylanadi"*, deydi u. Postmodern davri tanqidchilarning fikricha simulakra dengizida real hayot ramzlari butunlay yo'q bo'lib ketadi [7]. Simulakrani real hayotning replikasi sifatida tan oladigan bo'lsak, ma'lum ma'noda replika reallikni o'zida namoyon etishi mumkin, ammo asl reallikka

da'vo qila olmaydi. Bu holat o'z navbatida ikki narsaga sabab bo'ladi: birinchi holatda hech qachon jiddiy qabul qilinmaydi. Ikkinchi holatda esa replika haqiqiy real narsa sifatida qabul qilinadi. Ikkala holatda ham faqat ayanchli natijaga sabab bo'ladi.

Keyingi bosqichda katta loyihani amalga oshirish uchun har tomonlama mukammal joy tanlash muammosi ko'rib chiqiladi. Ser Jek Pitmen va uning hamkorlari uchun Shillesni tanlashsa, u turistlarga juda uzoqlik qilar edi, Chennel orollari – haddan tashqari fransuzcha bo'lib ketar edi, paffinlari bilan mashhur Lundi orollari esa Temza daryosi qirg'oqlaridagi – loyli yerdan iborat edi xolos. Va nihoyat Vayt oroli tanlandi. U Angliyaning shundoqqina belidan pastda joylashgan edi. Bundan tashqari, *"mitti va shirintoyligi"*, *"muqaddas"* buldozerlar tagida qolib ketib, yo'qolib ketish xavfi ostidagi biron-bir o'simliklar, hayvonlar, qushlar va madaniy merosga yetqazilishi mumkin bo'lgan zarar haqida biror *"ma'lumot keltirilmagani"* juda katta loyiha uchun aynan shu orolning tanlanishiga sabab bo'ldi.

Ammo Ser Jek va uning atrofidaigilar uchun loyihani amalga oshirish juda qiyin kechdi. *"Angliya, Angliya"* deb nomlangan mavzuiy istirohat bog'ini Ser Jek va'da qilganidek turistlarning Makkasiga (A Tourist Mecca) aylantirish uchun ancha ter to'kishga to'g'ri keldi. Haqiqiy ingliz millatini o'zida ifoda etishi mumkin bo'lgan barcha narsa inobatga olindi. Fuqarolar orasida haqiqiy ingliz millatini nima ifoda etishi mumkinligi haqida so'rovnomalari o'tkazildi. Javoblarda keltirilishi kutilgan Qirollik oilasi, Big Ben, Robin Gud, kriket, BBC, Shekspir va yana uzundan uzoq ro'yxatda – tog' cho'qqisidagi malinovka qushi singari ba'zi umuman kutilmagan xususiyatlar ham inobatga olindi. Ammo ro'yxatda keltirilgan ko'ngilni xira qiladigan ingliz imperializmi, tabaqalar o'rtasidagi keskinlik, ikkiyuzlamachilik va shunga o'xshash bir necha salbiy fikrlar *"vatanparvar"* Ser Jek Pitmenning g'azabini keltirgan bo'lsa-da, u buni shunchaki hasadgo'ylarning ig'vosi deya baholadi. Barcha muammolar bartaraf etildi, orol Parlamentning biroz qarshiligiga qaramasdan, sotib olindi. Ingliz millatining ramzi deya tan olingan ellikta eng muhim punktlar asosida *"Angliya, Angliya"* yaratildi, Pitmen Uyi II bo'lib, yangi orolga ko'chirildi. Mavzuiy istirohat bog'ining ochilish marosimi Ser Jek Pitmenning tug'ilgan kuniga belgilandi va aynan shu kuni u yangi zamonaviy *"Angliya, Angliya"*ning gubernatori etib saylandi. Angliyaning ushbu miniatyura nusxasi tashrif buyuruvchilarga ingliz madaniyati va tarixiy merosini hech bir noqulayliklarsiz ko'rish imkonini yaratdi. Asarda nomi keltirilgan Shvetsariya Birlashgan Banki tahlilchisi – Richard Poborskining Uol Strit jurnalida Angliya, Angliya haqida to'xtalib ta'kidlaganidek: *"... bu juda ajoyib taraqqiyot namunasi. U haqiqiy tijorat markazi. Uning ishlariga davlat umuman daxl qilmaydi chunki u yerda davlatning o'zi yo'q. U yerda tashqi va ichki siyosat tushunchasi mavjud emas, faqat iqtisodiy siyosatgina bor. Bu – markazlashgan hukumatning murakkab dasturlari va saylov va'dalaridan xoli xaridorlar va sotuvchilar uchun sof muloqot bozori"* [4]. Haqiqiy Angliyaga qiyoslaganda yangi Angliya, Angliya nafaqat *"qulayroq balki, tozaroq, eng muhimi yana ham do'stona va vaqtni samarali o'tkazish imkonini bera oladi"* [4]. Ser Jek Pitmen ta'kidlaganidek, bu yerda hamma narsa duplikat va soxta, faqat pulgina haqiqiy. Shubhasiz, bu joyda faqat sotish va sotib olish mumkin. Chin insoniy tuyg'ularga va haqiqatlarga bu yerda o'rin yo'q. Agar shunday bo'lmaganida Martaning Angliya, Angliyadagi kechinmalari ayanchli yakun topmas edi. Garchi loyihaning fundamental asosidan tortib, uning asosiy komponentlari ipidan ignasigacha Martaning yo'riqnomalari asosida tuzilgan bo'lsa-da, loyiha a'zolari uchun u ma'lum muddatgagina kerak edi. Loyiha maromiga yetkazilib, o'z faoliyatini boshlagach

Martani bosh direktor (CEO – chief executive officer) lavozimiga tayinlashgan bo'lsa-da, uning bu yerdagi faoliyatini yakunlash uchun birgina sabab yetarli edi. Marta bilan sevishib yurgan loyiha ishtirokchilaridan biri Pol Harrison bosh direktor lavozimiga erishish uchun Martadan foydalanib yurgani tez orada oydinlashadi va Marta persona non grata sifatida paromda Eski Angliyaga qaytarib yuboriladi.

Eski Angliya asarda “Anglia” deb nomlanib, muallif Julian Barnsning nazdida garchi huvillab qolgan bo'lsa-da, hammasini qaytatdan boshlash uchun berilgan bir imkon, ammo bu safar yuqorida nomi keltirilgan madaniy meros – yolg'onlardan xiyonatdan, axloqsizlik va illatlardan xoli tarzda yaratilishi kerak. Ingliz millatining bosh afsonasi qahramonlari xalq manfaatlari uchun kurashgan – *Robin Hud va uning quvnoq do'stlari aslida gey bo'lib chiqsa*, [4] butun dunyoga dong'i ketgan zodagon shoiri – Bayron o'zining o'gay singlisi bilan ishqiy munosabatlari sabab [4] xalq og'ziga tushgan bo'lsa, Oskar Uaylda hammasi ochiq oydin bo'lsa, Bernard Shou yalang'och rasmga tushib [4] maqtangan bo'lsa, millatning ko'nglidan joy olgan Nel Givin xonim o'zini ochiqdan ochiq “Protestant fohisha” deb tan olgan bo'lsa, bunday holatda eng to'g'ri yo'l ko'hna Angliaga – uning bu kabi illatlardan xoli holatiga qaytish bo'ladi. Muallifning fikricha, biz bilgan Angliya dunyoga hech bir donolik timsolini chiqarib bera olgan emas (*Hadn't Old England produced any wits who were ... sound?* [4]). Asarning birinchi bo'limidagi haqiqiy Angliya ana shunday ayanchli distopik ahvolda. Bunday nosog'lom muhitda hech qanday qadriyatlarga o'rin yo'q. Aksi bo'lganda, Marta otasi tirik bo'la turib, ota mehridan mosuvo bo'lib, o'smas edi, chinakam qadriyatlar ustiga qurilgan jamiyatlarda oilalar bunchalik oson buzilib ketmas edi. Martaning nazdida esa otasidan qolgan achchiq xotiralar sabab “*oilali erkaklar eng yomon erkaklar* [4]” sifatida namoyon bo'lmas edi.

Ikkinchi bo'limdagi Angliya, Angliya – postmodern jamiyatlar orzu qilgan haqiqiy tijorat maskani. U haqiqiy Angliya va'da ham qila olmaydigan darajadagi oliymaqom qulayliklardan bahramand bo'lish imkonini bera olgan betakror simulakra mahsuli. Haqiqiy reallikni qadrlay olmaydigan o'zini asllikdan mahrum qilganlar uchun o'zini o'zi aldab yashashi uchun yaxshi vosita. Balki ularning o'limini ham yolg'onga chiqara olish kuchiga ega vosita. Ser Jek Pitmenning o'limidan keyin uning o'rniga uning nusxasi olib kelib qo'yildi. Endi u na o'lgan va na yashayotgan hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xullas, uchinchi bo'limda Angliya dekonstruktiv yondashuv asosida o'zining asl holatiga qaytarilgan ko'hna *Angliyaga* aylandi. Garchi xavotirli tuyulsa-da, Angliada uzoq yillar davomida amalda qo'llab kelingan iqtisodiy o'sish, siyosiy ta'sirni kuchaytirish, harbiy salohiyat va ma'naviy ustunlik g'oyalaridan butunlay voz kechildi. Hatto pul to'lab bo'lsa-da, Yevropa Hamjamiyatidan chiqib ketildi. Mamlakat hududida xorijliklarning mulkka egalik huquqi butunlay bekor qilindi va harbiylardan voz kechildi. Emigratsiyaga ruxsat berildi, ammo chetdan kirib kelish cheklab qo'yildi. Turistik maqsadlarga keskin ta'qiqlar qo'yildi. Eski ma'muriy okruglarga bo'linish tugatildi va yangi anglo-sakson qirolliklari tizimidagi kabi viloyatlar tashkil etildi. Nihoyat, mamlakat dunyodan ajralganligini e'lon qildi. Uchinchi ming yillikdan boshlab uning nomi Angliyaga o'zgartirildi. Angliya vatanparvarlarining nazdida bu kabi choralardan maqsad “o'z tarixidan charchagan davlat”ni qayta tiklash edi. Va nihoyat, Marta uchun keksalik davriga kelib, o'zi orzu qilganidek, haqiqiy xavotirsiz, yolg'onlarsiz hayot boshlash imkoni berildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ahmed S. Satires in Julian Barnes's England, England. – Bangladesh. Cognizance Journal of Multidisciplinary Studies., Vol.3, Issue.9., 2023. – PP. 165-173.;
2. Arargüç M.F. Idle Simulacra in Julian Barnes' England, England. Journal of British Literature and Culture. No. 12., 2005. – PP. 3-20.
3. Baudrillard J. Trans. by Glaser Sh.F. Simulacra and Simulation. Michigan, 1994. – P. 6.
4. Barnes J. England, England. – NY. Vintage Ebooks., 1998. – P. 11, 13, 52, 57, 86, 87, 132, 160, 185.
5. Butler Ch. Postmodernism. A Very Short Introduction. – NY. Oxford University Press., 2002. – P. 21.
6. Ekberg. J. More Real than Real: Simulacra and Satire in Julian Barnes's England, England. – China. College of Liberal Arts., 2014. – P. 1.;
7. Matthews G. Ethics and Desires in the Wake of Postmodernism: Contemporary Satire. Bloomsbury Academic. UK, 2012. – P. 2.